



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

5(22)

2025





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№5(22) 2025

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 -
tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha
dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan
zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



Jurnal haqida
Jurnalga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале «Педагогическая акмеология» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Pedagogical akmeology" international scientific-metodical journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal "Pedagogical akmeology" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

MUNDARIJA

TARIX..... 8

Tuyev Fazliddin Erkinovich. Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlarida investitsion jozibadorlik: 2017-2023 – yillar misolida.....	8
Axmadvov Amonkeldi. Tarixni o'rganishda sun'iy intellektning roli.....	14
Ochilov Alisher To'lis o'g'li, Xurramov Abror Rustam o'g'li. Poykent va Varaxshaning arxeologik o'rganilishi (XX asrning 30-40 – yillari misolida).....	17
Orziyev Mahmud Zayniyevich, Ergashev Avaz Amon o'g'li. Buxoro amirligi hududida temir yo'llarning qurilishi va ahamiyat xususida.....	21
Boltayev Bobir Baxtiyorovich. Ta'lim sohasidagi muzeylar nufuzining yanada ortishi (Buxoro misolida).....	26
Bobojonova Feruza Xayatrovna. Buxoro oblastida sovet maktabi masalalarining matbuotda yoritilishi.....	29
Yuldosheva Bibirajab. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik davridagi atmosfera havosini muhofaza qilish siyosatining tarixiy tahlili	35
Baxtiyorov Behruz Bobirovich. Yurtimizdagi dastlabki qishloq manzilgohlarining shakllanish jarayonlari.....	42
Sultonova Nigina. Buxoroda ishlab chiqarilgan matolar	45
Shamsiyeva Zilola Askarovna. Jadidlarning marosimlarga oid fikr-mulohazalari xususida.....	48
Axmadvov Amonkeldi, Ziyodulloyeva Parvina. ikki qutbli dunyoda German davlatlarining taqdiri (1945–1990 yy.)	53
Sirojov Ochil Sirojovich. Fashizmga qarshi urush yillarida O'zbekiston engil va mahalliy sanoatning harbiy izga ko'chirilishi.....	57
Sharipova Parizod Quvvatjon qizi. Mustaqillik yillarda o'zbek xonliklarining tarixini o'rganilishi	62

ANIQ FANLAR..... 67

Xojiyev Baxodir Istamovich, Berdiqulova Marjona Murod qizi. Fizikaning "fotometriya qonunlari" bo'limidan masalalar yechish metodikasini rivojlantirish.....	67
Qurbonov G'ulomjon G'afurovich, Baxronova Sayyora Botir qizi. Ta'lim jarayonida raqamli platformalarning integratsiyasi: amaliy yondashuvlar.....	72
Mirzayev Tolibjon To'raqul o'g'li. Generativ sun'iy intellekt yordamida xavfsiz kod yozish kompetensiyasini shakllantirish.....	77
Raupova Iroda Barakayevna. Methodological foundations of using the credit-module system in teaching physics.....	81
Ochilova Laylo Temirovna. Determinantlar va ularning xossalari o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.....	84
Jamolova Shahlo Qobilovna, Ravshanova Shaxlo Erkinovna. Talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili	90

FILOLOGIYA 94

Xalilova Ruksora Raupovna. O'qituvchining individual nutq uslubini rivojlantirishni tashkil etish nazariyasi.....	94
Hojiyeva Gulchehra Salimovna. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining xorijiy tillardagi kreativ kompetentligini oshirish texnologiyalari ("Règles de la politesse française" mavzusi misolida).....	97
O'rinova Maftuna No'mon qizi. Oxunjon Safarov – bolalar folklorining areal tadqiqotchisi	106

PEDAGOGIKA.....109

Mustafayev Baxtiyor. Maktab musiqiy-pedagogik jarayonida o'qituvchining kasbiy mahorati	109
Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna. Oliy ta'lim muassasalari kafedra mudirlari faoliyatida subordinatsiya omilining ijtimoiy-psixologik ahamiyati.....	112
Axrorov Ixtiyor. Jadidlar harakatining ilm-fan, ta'lim va matbuot yo'nalishlaridagi islohotlari	117
Ishankulova Komila Kurbanovna. Talaba-yoshlarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirish	121
Yadgorov Nodir Djalolovich, Davlatova Aziza. Badiiy tahlilni o'qitish jarayonida o'quvchilarning emotsional qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish.....	126

Boltayev Bobir Baxtiyorovich

Buxoro davlat universiteti
arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrası dotsenti,
tarix fanlari falsafa doktori (PhD)

TA'LIM SOHASIDAGI MUZEYLAR NUFUZINING YANADA ORTISHI (BUXORO MISOLIDA)

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurtimizda hozirgi kunda muzey sohasini qo'llab - quvvatlash va rivojlantirish borasidagi olib borilayotgan ishlar ko'lamini Buxoro viloyatidagi oliygoh huzuridagi muzey faoliyatining yo'lga qo'yilishi hamda muzeyshunoslik sohasida amalga oshirib kelinayotgan tadqiqotlar va ularning natijalari manbalar asosida batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Virtual muzey, kommunikatsion, muzeyshunoslik, Xalqaro muzeylar, genofond, eksponat, multimedia, audiogid, attraktiv, autentichnost.

ДАЛЬНЕЙШЕЕ УСИЛЕНИЕ ВЛИЯНИЯ МУЗЕЕВ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ (НА ПРИМЕРЕ БУХАРЫ)

Аннотация. В статье на основе источников подробно описывается объем работ, проводимых в настоящее время по поддержке и развитию музейного сектора в нашей стране, создание музея при университете в Бухарской области, а также проводимые исследования в области музееведения и их результаты.

Ключевые слова: Виртуальный музей, коммуникация, музейное дело, международные музеи, генный фонд, мультимедиа, аудиогид, привлекательность, подлинность.

FURTHER STRENGTHENING THE INFLUENCE OF MUSEUMS IN EDUCATION (USING BUKHARA AS AN EXAMPLE)

Abstract. The article, based on sources, describes in detail the scope of work currently being carried out to support and develop the museum sector in our country, the creation of a museum at the university in the Bukhara region, as well as ongoing research in the field of museology and their results.

Keywords: Virtual Museum, Communication, Museum Studies, International Museums, Gene Fund, Exhibit, Multimedia, Audio Guide, Attractive, Authenticity.

Istiqlol sharofati bilan, yurtimiz tarixini, ko'p yillik merosini o'zida mujassam etgan zamonaviy muzeylarni tashkil etish yuzasidan juda ko'p amaliy ishlar amalga oshirildi. Yangi zamonaviy muzeylarning tashkil etilishi, globallashuv jarayonining shiddat bilan davom etayotgani, yosh avlodni ota-bobosi merosidan xabardor qilish va ularda turli xil mafkuraviy g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirishda yurtimizdagi muzeylarning o'rni nihoyatda kattadir! [1]. Yangi muzeylarning tashkil etilishi bilan bir qatorda shu kunga qadar ham o'z faoliyatini davom ettirib kelgan barcha katta-kichik muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash, milliy istiqlol ruhida qayta tashkil etish ularni zamon talablariga moslashtirish masalalari asosiy o'ringa ko'tarilishi bejizga emas albatta.

1977-yildan beri dunyoda an'anaviy tarzda 18-may Xalqaro muzeylar kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. O'zbekiston ham (IKOM) ga a'zo bo'lgach, bu shodiyona bizning yurtimiz uchun ham o'zgacha bir ahamiyat kasb eta boshladi. Mustaqillik yillarida tarixiy merosimizni o'zida saqlovchi, namoish etuvchi muassasa hisoblangan muzeylar rivojiga alohida e'tibor qaratildi. Turli tashkilot va muassasa muzeylarini tashkil qilish va ular faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida juda ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirildi [2].

O'zbekiston Respublikasi o'z istiqlol yo'lini tanlagan kundan boshlab, muzey sohasini rivojlantirish va uni qullab-quvvatlash masalasi kun tartibidagi asosiy o'ringa ko'tarildi. Shular qatorida yurtimiz ilm-fan rivoji yo'lida faoliyat olib borayotgan oliygohlar huzuridagi muzeylar taraqqiyoti ham yosh avlodni vatanga sadoqat o'z xalqiga hurmat ilmga muhabbat ruhida tarbiyalashda asosiy o'rin egallab kelmoqda. Shu uchun ham biz ushbu muzeylar bosib o'tgan taraqqiyot bosqichlarini yoritishda quyidagi mualliflarning asarlaridan o'rinli foydalaniga va tahlil qilishga harakat qilib ko'rdik. Biz yoritmoqchi bo'lgan mavzu Buxoro davlat

universiteti huzuridagi tashkil etilgan va hozirda bir necha muzeylarning shakllanishi uchun asos bo'lgan oliygoh muzeyidir![3].

Oliyogoh muzeyini o'rganar ekanmiz, bu yo'nalishda yaratilgan bir qator asrlarni tahlil qilishni joiz deb bildik.

Birinchi guruhga rus olimlarining asarlari: N.A.Nikishin "muzey i noviye tehnologii, na puti k muzeyu XXI veka" M.1999.g 216-s. Y.L.Galkina. etnograficheskiye istochniki v muzeye problemi interpretatsii. M.1998.g. Ikkinchi guruhga o'zbek olimlarining ilmiy tadqiqotlari: Azimova M. M, "Mustaqillik yillarida muzeylar faoliyati va turizm", "Buxoroni turizm chorxasiga aylantirish imkoniyatlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to'plami. 2019-yil 29-may. - Buxoro: 2019. (2-qism) A.To'laganov, H. To'rayev. Buxoro davlat universitetining 85 yilligi muzey ko'zgasida. "Muzeyshtunoslik" fanidan o'quv qo'llanma. Buxoro-2016-yil[5].

Almeyer R. Muzey jamg'armalarini optimallashtirish, saqlash va ko'rgazmalashtirish. // Moziydan sado. 2(38) – Toshkent: 2008. B-2-3[2].

D.T.Kuryazova O'zbekiston moddiy madaniy merosini o'rganish, saqlash va muzeylashtirishning nazariy metodologik asoslari. Tar Fan Dok (DSc) Diss Avtoref Toshkent – 2021 81-bet[10].

Yuqorida qayd qilib o'tilgan ilmiy asarlar ma'lum ma'noda biz o'rganmoqchi bo'lgan mavzuni yoritishda asosiy hisoblanadi.

Tadqiqot ishi xolislik, tarixiylik, ilmiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

Muzeylar nufuzini oshirish, ularni zamonaviy talablar doirasida jihozlash, tomoshabinlarni jalb qilish uchun yangi usullarni tashkil etish, ilgari namoyish etish imkoni bo'lmagan muzey fondlaridagi buyumlarni ham namoyish etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi. Bu uchun esa muzey xodimlari har yerda va har doim millat hamda mamlakatning genofondi bo'lmish muzeylarning ulkan imkoniyatlarini ochib bera olishlari lozim edi. Shu sababdan bilimli zukko, o'z kasbini sevadigan, vatanparvar muzey mutaxassislariga ehtiyoj kundan –kunga ortib bormoqda[6]. O'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash, mafkuraviy immunitetni shakllantirishda boshqa targ'ibot vositalari qatori muzeylarning ham o'z o'rnini va vazifasi bor. Muzeylar ishini takomillashtirish jarayoniga mustaqillikning dastlabki davrlaridan qo'l urildi. Bu xayrli ishlarning natijasi o'laroq, muzeylar ishini qayta tashkil etish va rivojlantirish to'g'risida hukumat qarorlari qabul qilindi. "Muzeylar kuni", "Muzeylar haftaligi", "Ochiq eshiklar kuni" kabi tadbirlar mamlakatimizda muntazam o'tkazilib kelinmoqdaki, ular chinakam ma'noda ommaviy bayramga aylanib ulgurdi [7].

Darhaqiqat, bunday yangiliklar Respublikamizning barcha oliy o'quv yurtlari huzuridagi muzeylar uchun ham turtki bo'ldi desak aslo xato qilmaymiz. Muzey darslarini tashkil qilish yoki ayrim darslarni to'g'ridan-to'g'ri muzeylarda o'tish amaliyotini joriy qilish va ommalashtirish dolzarb masalalardan biriga aylanishi kerak. Bu narsa birinchidan, muzey ishining yangi qirralarini ochishga, ikkinchidan, ta'limning noan'anaviy usullarini takomillashtirishga xizmat qiladi[8].

Mamlakatimizda muzeylarga bo'lgan yuksak e'tibor doirasida Buxoro Davlat Universiteti huzurida ham ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyasi tashkil etilgan edi. Buxoroda necha yillardan beri namunalni davom etib kelayotgan muzey ishining tarixiy – ma'rifiy an'analari Buxoro davlat universitetining yangi tashkil etilgan muzeyida ham o'z ifodasini topdi.

Umuman, universitetda tashkil etilgan muzey – ekspozitsiyalar ichida ushbu Ilmiy-amaliy muzey-laboratoriya uchinchisidir. Birinchi muzey-ekspozitsiya mustaqillik arafasida, ikkinchisi o'tgan asrning 90-yillari oxirida tashkil topib, barchasi ko'rgazma mazmuniga ega edi. Yangi ilmiy – amaliy muzey – laboratoriya esa oldingilaridan shaklan va mazmun jihatdan farq qila boshladi. Ushbu muzey haqiqiy professional ilmiy markaz sifatida faoliyat yuritib, o'z oldiga Buxoro davlat universiteti tarixi, uning rivojlanish bosqichlari haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va shu asosda yurtimizdagi va xorijdagi oliygohlar bilan ilmiy va madaniy aloqalarni takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqarishni asosiy vazifa etib belgilaydi. Shunday qilib, rus olimi muzeyshtunos N.A.Nikishin fikriga ko'ra, zamonaviy ilmiy muzeylar komplekslarida bir qancha ramziy qiymatda ishlab chiqarilgan, asosan interpretatsion va kommunikatsion texnikalar yotadi; Ilmiy va ilmiy-targ'ibot yo'nalishlarida sohalar doirasida zamonaviy ko'rinishdagi rejalar innovatsiya va konsepsiyalar ko'rinishida joriy qilina boshlandi[3]. Bu qonuniyatlar barchasi fan, soha doirasida ilmiy asoslangan holda tajriba, ilmiy izlanishlar, falsafiy qarashlar va umumiy dunyoqarash asosida ishlab chiqiladi.

Yuqorida nomi tilgan olingan Ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyasini tashkil qilish jarayonida, tarixiy va zamonaviy eksponatlar kompleksini shakllantirish, universitet tarixini aks ettiruvchi arxiv materiallarini qidirib topish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Chunki oldingi ekspozitsiyalarda nodir arxiv materiallari deyarli uchramas edi. Ayniqsa, Buxoro davlat pedagogika institutini tashkil etish to'g'risida Respublika xalq maorifi komitetining birlamchi buyrug'ini qidirib topish va uni ekspozitsiyaga joylashtirish dolzarb va

kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sifatida ishchi guruh zimmasiga yuklatildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi fondlaridagi ilmiy sa'y-harakatlar tez orada o'z natijasini beradi. Ya'ni asl nusxadagi hujjat topildi va undan nusxa ham olindi[6].

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 16-fevraldagi Buxoro shahriga qilgan tashrifida viloyatda turizm sohasini yanada rivojlantirish konsepsiyasi asosida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishar ekan. "Buxoro o'zining betakror tarixiy obidalarini, osori-atiqalari, asrlar osha davom etib kelayotgan milliy hunarmandchilik an'analari bilan yurtimiz turistik jozibadorligini oshirishda ulkan salohiyatga ega ekanligini"-ta'kidlab o'tar ekanlar, mustaqillik yillarida muzeylar faoliyati tubdan o'zgarib yuqori darajada o'sishida, albatta barchasining zaminida ko'plab mashaqqatli mehnat va shijoat yotadi[9]. Respublikamiz muzeylari o'z yo'nalishlariga qarab xalqimiz boy madaniy merosini, uning taraqqiyot bosqichlaridagi o'rnini haqqoniy aks ettirib, zamon talablari asosida istiqbol ruhida ekspozitsiyalar yaratilishi zarurligi amalga oshirila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi oliy dargohlari huzuridagi muzeylari faoliyatida namoyon bo'layotgan mazmunan va shaklan eski, qotib qolgan tasavvurlarni bartaraf etish, ushbu muzeylarda to'laqonli ish olib borish, ijtimoiy madaniyat muntazam ravishda o'zgarayotgan bir paytda muzey ishini faollashtirish hamda turli muhim nazariy va amaliy muammolarni yechish, zamonaviy muzey ishi sohasida izlanishlar olib borish, qulay konstruktiv yechimni topish va O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlaridagi muzeylarni jahon oliygohlar muzeylari bilan har tomonlama hamkorlik qilishi, muzeylarga innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali rivojlanishga erishish asosiy masala bo'lib kelmoqda. Kadrlar tayyorlash masalasiga jiddiy qarash maqsadida oliy o'quv yurtlariga muzeysunos olimlarni jalb etib, o'qitish usullarini takomillashtirish, o'quv mashg'ulotlarini amaliy mashg'ulotlar bilan uzviy bog'lab olib borish, respublikadagi yetakchi muzeylarda muzey xodimlarining malakasini oshirish, tematik-ekspozitsion rejalar ko'paytirilib, respublikamizdagi barcha muzeylarga tarqatilishi kabi ishlar ancha jonlandi[8].

Hozirgi kunda Buxoro davlat universiteti muzeyi zaxirasida saqlanayotgan jami ashyolarning jamlama katalogini tuzish hamda ortiqcha zaxira fondidagi eksponatlardan foydalangan holda yangi zamonaviy muzeylar faoliyatini yo'lga qo'yish nihoyasiga yetkazilmoqda. Tabiiyki, har qanday muzey o'z zaxirasini yangi topilma va zamonaviy asarlar bilan boyitib boradi. Biroq, ortiqcha zaxira fondidagi eksponatdan unumli foydalanish ham bu hozirgi kundagi eng asosiy tendensiyalardan biri bo'lsa kerak deb hisoblaymiz. Shu ma'noda oliygoh muzeylari faoliyatini yuksaltirish, ularga ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish bu bugungi kun davr talabidir deb o'ylaymiz.

Foydalangan adabiyotlar

1. Azimova M. M., "Mustaqillik yillarida muzeylar faoliyati va turizm", "Buxoroni turizm chorrasiga aylantirish imkoniyatlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to'plami. 2019-yil 29-may. -Buxoro: 2019. (2-qism)

2. Альмеев Р. Музей жамғармаларини оптималлаштириш, сақлаш ва кўргазмалаштириш. // Мозийдан садо. 2(38) – Тошкент: 2008. Б-2-3.

3. Habibullayev N. Muzey va fan-ta'lim. / O'zbekiston muzeylari istiqbollari. – Toshkent, 2013. – B.7.

4. Музей и этнология: серия электронных изданий museum pro/ отв. ред. Е.Л.Галкина, Е.Е.Кузьмина, Н.А.Никишин. -М., 1997;

5. Музей как социокультурное явления Е.М. Акулич // социологические исследование -2004- №10-С89-92.

6. D.T.Kuryazova O'zbekiston moddiy madaniy merosini o'rganish, saqlash va muzeylashtirishning nazariy metodologik asoslari. Tar Fan Dok (DSc) Diss Avtoref Toshkent – 2021 81-bet

7. To'laganov A., H. To'rayev. Buxoro davlat universitetining 85 yilligi muzey ko'zgusida. "Muzeysunoslik" fanidan o'quv qo'llanma. Buxoro-2016-yil

8. O'zbekistonda turizm rivojlanishining ilk bosqichlari.//www.turizm.uz

9. Muzey va turizm rivojining yangi bosqichlari //www.muzey.uz

10. Sh.M.Mirziyayevning Buxoroga tashrifi.//www.google.com

**“Durdona” nashriyoti muassisligidagi
“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.**

**“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA” xalqaro ilmiy-metodik jurnalida o‘zbek, rus, ingliz
tillarida maqolalar chop etiladi.**

**Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti**

Tahririyat rekvizitlari:

«Садриддин Салим Бухорий» МЧЖ
Манзил: Бухоро, Муҳаммад Иқбола кўчаси, 11
Р/с 20208000104858465002
Бухоро шаҳри Ҳамкорбанк МФО 00966
ИНН 301637939 ОКНХ 87100

Мақолаларни қабул қилиш учун
<https://t.me/alijonhr>, <https://t.me/AzizaHusenovaSh>

PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA Xalqaro ilmiy-metodik jurnal 2025-yil 5-son (22) 2022-yil avgust oyidan chiqa boshlagan. Нашр индекси: 1397	“Durdona” nashriyoti nashri Jurnal davlat va nodavlat oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, kasb-hunar maktablari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan. Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi. Nashr uchun mas’ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar. Bosishga ruxsat etildi 01.05.2025 Bosmaxonaga topshirish vaqti 08.05.2025 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 32,0 Adadi – 100 nusxa Buyurtma №262. Bahosi kelishilgan narxda. “Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.
---	--	--